

ELEKTR ENERGIYA KORXONALARIDA XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLILI

Urmanbekova Iroda Farxodovna

Toshkent moliya instituti

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasining asosiy yetkazib beruvchilari hisoblanuvchi hududiy elektr tarmoqlari korxonalarida xarajatlarning buxgalteriya hisobi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: buxgalteriya hisobi, buxgalteriya o‘tkazmasi, elektr energiyasi.

ABSTRACT

The article presents views on cost accounting at the enterprises of district electrical networks, which are the main suppliers of electricity in the Republic of Uzbekistan.

Key words: accounting, accounting and transfer accounting, electricity.

KIRISH

Islohotlarning yangi bosqichida respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tashabbusiga binoan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” Davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish vazifalari qo‘yilgan.

Butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham elektr energiyasiga bo‘lgan talab hajmi yildan yilga o‘sib bormoqda. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda 318,5 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,2 % ga o‘sdi.

YaIM o'sishi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi – qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1,8 %, sanoatda 8,5 %, qurilishda 0,1 % va xizmatlar sohasida 8,0 % darajasida qayd etilgan ijobiy o'sish sur'atlari hisobiga ta'minlandi.

Shuningdek, 2022 yilda energiya resurslari tariflari indeksatsiya qilinishi (oshishi) ko'zda tutilmoqda. Energiya resurslari tarif narxlarining 2022 yilda keskin oshirilishi fonida, inflyatsiya darajasining o'tgan yilga nisbatan pasayishini ta'minlash uchun boshqa iste'mol tovar va xizmatlar narxlari o'sish sur'atlarini sezilarli darajada pasaytirish choralarini ko'rish rejalashtirilgan. Jumladan, tegishli davlat mutasaddi tashkilotlariga iste'mol tarkibida yuqori vaznga ega oziq-ovqat, nooziq-ovqat tovarlari va boshqa xizmatlar narxlarining barqarorligi ta'minlash tavsiya etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirda mamalakatimizda maishiy iste'molchilar va sanoat korxonalariga elektr energiyasini etkazib beruvchi xo'jalik sub'ekti "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatni bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 martdagи "O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4249 sonli Qarori asosida tashkil qilingan. Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri etib taqsimlovchi elektr tarmoqlarinining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini hamda iste'molchilarga elektr energiyasini uzlusiz ravishda etkazib berilishini ta'minlash belgilangan.

Bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi energiya yetkazib beruvchilar faoliyatiga ham yangi turdagи asosiy vositalar kirib kelmoqda, chegaradosh qo'shni davlatlar bilan doimiy ravishda eksport va import munosabatlariga kirishilmoqda, xalqaro kredit liniyalaridan sohani rivojlantirish uchun ssudalar jalb etilmoqda. Shularni hisobga olib, elektr energiyasini yetkazib beruvchi xo'jalik sub'ektida buxgalteriya hisobini, xususan ularda energiyani ishlab chiqaruvchilaridan xarid qilish hisobini samarali yo'lga qo'yish va uni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatni va uning hududlardagi korxonalarini o'zlarining buxgalteriya hisobini O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining "Elektr energiyasini sotishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida"gi Qaroriga va boshqa qonun hujjatlari asosan yuritadi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan elektr energiyasini sotish bo‘yicha buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi bo‘lib, yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun o‘zaro hisob-kitoblarni to‘liq va o‘z vaqtida amalga oshirish uchun elektr energiyasini uzatish, taqsimlash va iste’mol qilinishi to‘g‘risida haqqoniy ma’lumotlar olish hisoblanadi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonalarida quyudagi buxgalteriya o‘tkazmasi orqali elektr energiyasi kirimi hisobga olinadi:

debet 2990 «Boshqa tovarlar» schyotida «Elektr energiyasi» schyotini alohida ajratgan holda;

kredit 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti.

Ma’lumki, elektr energiyasini realizatsiya qilish amaldagi Soliq kodeksiga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘i ob’ekti hisoblanadi. Shuni hisobga olib, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi hisobvaraq-fakturaga asosan sotib olingan elektr energiyasi bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini quyidagicha hisobga olishi kerak:

debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha to‘lovlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti.

Hududiy elektr tarmoqlar korxonalari elektr energiyani ulgurji yetkazib beruvchilarga oldi-sotdi shartnomasiga va pul mablag‘larining naqdligiga qarab vaqt-vaqt bilan kelgusida sotib olinadigan elektr energiyasi uchun bo‘nak to‘lovlarini to‘lashi mumkin. U holda quyidagi o‘tkazma yoziladi:

debet 4310 «TMQlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti;

kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5100, 5500 va h.k.). Xarid qilingan elektr energiyasi uchun yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilayotganda ilgari berilgan bo‘nak to‘lovlar summasi hisobga olinganda: debet 6120 «SHo‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti;

kredit 4310 «TMQlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti;

Hisobot davri mobaynida xarid qilingan elektr energiyasi uchun yakuniy hisob-kitoblar har oylik elektr energiyasini yetkazib berish to‘g‘risidagi dalolatnama va schyot-fakturaga muvofiq amalga oshirilganda:

debet 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti;

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar (5100, 5500 va h.k.) — ilgari berilgan bo'naklar hisobga olingandan keyin to'langan pul mablag'lari summasiga.

XULOSA

Yuqoridagilardan ko'rib turganingizdek, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari garchi elektr energiyasi olingandan keyinoq qisqa fursatda iste'molchiga yetkazib berilsa ham buxgalteriya hisobidagi schyotlar rejasiga muvofiq elektr energiyasining mavjudligi va harakatini 2990 «Boshqa tovarlar» schyotida hisobga oladi.

Elektr energiyasi nazorati – elektr energiyasi miqdorini o'lchash va tok quvvatining hajmini belgilash, toplash, saqlash, ishlov berish, hisob natijalarini uzatish va shakllantirish jarayonidir. Bu tizim ishlab chiqilgan va iste'mol qilingan mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlar ro'yxati va hisobini yuritish, belgilangan xizmat ta'minoti bilan bog'liq hisob-kitob jarayonlarini amalga oshirish bilan bir vaqtda, turar joy va boshqa turli ob'ektlarda elektr quvvati va issiqligini sarflanish miqdorini aniqlab berishga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi 2019 yil 27 martdagi PQ-4249 sonli Qarori. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi 245-tonli Qarori. 22.08.2009. www.lex.uz
3. A.A.Karimov, Z.Z.Kaxxarov “Hududiy elektr tarmoqlari korxonalarida elektr energiyani xarid qilish operatsiyalarini aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari”; “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. № 6, dekabr, 2020 yil.